

KOGNITIV TILSHUNOSLIK: INSON MIYASINING TILNI QABUL QILISHI, TUSHUNISHI VA ISHLATISHI

Gulnora Xayrullayeva Muhammadi qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, ona tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi bo'yicha 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqni tushunish va ishlab chiqarish jarayonlarida inson miyasi qanday faoliyat yuritishini, kognitiv mexanizmlarning rolini va psixologiya hamda tilshunoslik o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, kognitiv jarayonlar, tilni qabul qilish, nutq ishlab chiqarish, psixolingvistika.

Kognitiv tilshunoslik — til va fikrlash jarayonlarini o'rganadigan tilshunoslik sohasi, u inson miyasi tilni qanday qabul qilishi, qayta ishlashi va qo'llashini, til hamda ong o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. 1989-yil Germaniyada birinchi marotaba kognitiv tilshunoslikka doir Xalqaro konfrensiya o'tkazilgan. Bu konfrensiya qatnashchilari kognitiv tilshunoslikning Xalqaro assotsiatsiyasiga asos soldilar, "Kognitiv tilshunoslik" jurnalini yaratdilar va bu yo'nalishga qo'shimcha ravishda "Cognitive Linguistics Research" nomi ostida bir qancha monografiyalar yaratdilar. Bu yo'nalish tilning faqat grammatik va sintaktik tuzilmalarini o'rganish bilan cheklanib qolmaydi, balki inson miyasi tilni tushunishi, qo'llashi, anglashini ham o'rganadi. Til inson tafakkurining oynasi sifatida qaralib, kognitiv tilshunoslik bu oyna orqali ongda sodir bo'ladigan kognitiv jarayonlarni tahlil qiladi. Kognitiv tilshunoslik til va idrokning o'zaro bog'liqligini o'rganadi. Kognitiv tilshunoslikda til ma'noni saqlaydigan, tasvirlaydigan va yetkazib beradigan eng asosiy birlik sifatida qaraladi. Bu fan yangi so'z va iboralarni miyamizda qanday saqlashimizni tahlil qiladi. Kognitiv tilshunoslikda tilning fikrlash uslubimiz va xulq-atvorimizga ta'sirini, bilingvistlarning dunyoni turlicha qabul qilishini ham tadqiq etadi. Shu bilan birga, u miyadagi til markazlari, xotira va diqqat kabi jarayonlarning til bilan o'zaro bog'liqligini tekshiradi. Kognitiv tilshunoslik fikr yuritish va muloqot qilishning ko'z ilg'amas, lekin muhim tafsilotlarini yoritadi. Uning maqsad vazifasi shundan iboratki, til insoniyatni qamrab turgan urf-odati, madaniyati, tarixini anglashda tilning aniqlanishi, inson tajribasi va xotirasida saqlagan bilimni muayyan bir sistemaga solishi va uni boshqalarga yuborayotganda vositachi bo'lgan tilning rolini tadqiq etishdir.

Kognitiv tilshunoslikda inson miyasining tilni qabul qilish va ishlatish jarayonlari quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tilni qabul qilish;
2. Tilni ishlatish;
3. Til va xotira;
4. Til va tafakkur;
5. Tilni avtomatik ishlatish;
6. Ishoralar va muloqot;

Tilni qabul qilish jarayoni insonning ma'lumotlarni sezgi organlari orqali qabul qilib, ularni tushunish uchun kognitiv jarayonlar orqali qayta ishlashini o'z ichiga oladi. Tilni qabul qilishning birinchi bosqichi fizik signallarni sezishdir. Gapirilgan til tovush shaklida bo'ladi. Eshitish jarayonida tovush to'lqinlari quloq tomonidan qabul qilinadi. Yozma matnni yoki imo-ishoralarni qabul qilish vizual signalga asoslanadi. Ko'rilgan belgi yoki imo-ishoralar kognitiv jarayon sifatida belgilanadi. Tilni qabul qilishning keyingi bosqichi bevosita miya bilan kechadigan jarayon hisoblanadi. Bunda tovushlarni miya qabul qiladi va uni analiz qiladi. Eshitgan tovushlarimizni fonemalarga bo'ladi va buni eng kichik tovush birligi sifatida kodlaydi. O'qiganimizda harflarni miya taniydi va bizga tushuncha beradi. Undan so'ng fonemalar, so'zlar va iboralar miyada ma'no hosil qilish uchun birlashtiriladi. Bu jarayon semantik tahlil deb ataladi. Miya shu bosqichda nafaqat so'zlarning ma'nosini tushunadi, balki ularning qanday tuzilishini ham hisobga oladi. Tilni to'liq qabul qilish faqat so'zlarning ma'nosini bilish bilan tugamaydi. Ma'no tilning ishlatilayotgan konteksti va pragmatik jihatlari bilan ham bog'liq. Pragmatika tilning vaziyatga ko'ra qanday ishlatilishini o'rganadi. So'z va iboralarning ma'nosi kontekst ichida anglashiladi.

Tildan foydalanish, tilni ishlatish bosqichi tilni rejalashtirish bilan boshlanadi. Nutq bayon etilishidan oldin insonmiyasida fikr shakllanadi. Fikr ifodalanayotganda esa miya avtomatik ravishda grammatika qoidalarini tanlaydi. Fikr ifodalash jarayonidagi eng qiyin tanlov sifatida so'zni to'g'ri tanlashni keltirishimiz mumkin. Inson miya o'zidagi lug'at boyligidan kerakli so'zlarni izlaydi, ular orasida eng aniq va mos keladiganini tanlaydi. Bunda so'zning o'z va ko'chma ma'nolariga ham e'tibor beradi. Tilni ishlatishda miya qaysi zamon yoki grammatik shaklni tanlashni aniq boshqaradi. Tilni ishlatishda pragmatik jihatlar – ya'ni gapning vaziyat va suhbatdoshning holatiga mosligi ham muhimdir. Tilni ishlatishda muloqotdagi asosiy maqsad hisobga olinadi. Masalan, gapni axborot yetkazish, buyruq berish, iltimos qilish yoki his-tuyg'ularni ifodalash uchun ishlatish mumkin. Bundan tashqari, rasmiy va norasmiy vaziyatlarda turli uslublardan

foydalaniladi. Yosh, ijtimoiy mavqe, vaziyat kabi omillarni hisobga olgan holda til uslubi tanlanadi.

Til va xotira tilni tushunish va uni ishlab chiqishda juda ham muhim. Aytilgan murakkab bo'lakli gaplar, uzun jummalarni operativ xotira saqlab turadi va miya uni tahlil qilgach ixcham shaklda fikr bayon etiladi. Uzoq muddatli xotirada yodlagan so'zlaringiz, qoidalar o'z-o'zicha avtomatik shaklda qo'llaniladi. Bundan tashqari epizodik xotira ham mavjud bo'lib, u ma'lum bir kichik mavzu doirasida amalda ko'rinadi va faqat shu mavzu doirasidagina so'zlarni miyamizda tartibga soladi. Tilni tushunishda passiv eslash jarayoni ham muhim sanaladi. Bunda inson u so'zning ma'nosini odatiy jarayonda eslay olmaydi. Uni eshitganida yoki o'qiganida uning ma'nosini eslaydi. Til va xotira miya faoliyatiga bog'liq bo'lgani uchun, miya kasalliklari ham bu jarayonlarga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, altsgeymer yoki afaziya xotira va tilga zarar keltiradi.

Til va tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog'liq jarayonlardir. Til – insonning fikrlarini ifodalash vositasi bo'lsa, tafakkur fikrlarni shakllantirish jarayonidir. Til tafakkurga shakl beradi, tafakkur esa til orqali ifodalanadi.

Tilni avtomatik ishlatish holati odatda tilni yetarli darajada o'zlashtirgan insonlarda kuzatiladi. Dastlab, yangi tilni o'rganishda miya har bir so'z va jumlaning ongiga ravishda qayta ishlaydi, lekin vaqt o'tgan sayin so'zlash qobiliyati avtomatiklashadi. Misol sifatida ona tilida so'zlashni keltirish mumkin: biz gapirganda qoidalarini eslashga emas, balki fikrni yetkazishga e'tibor qaratamiz, chunki til avtomatik ishlaydi.

Imo-ishoralar orqali tilni tushunish, fikrni yetkazish osonlashadi. Imo-ishoralar so'zlarning ma'nosini kuchaytiradi yoki aniqlik kiritadi, yuz ifodalari yoki qo'l harakatlari yordamida insonlar o'z his-tuyg'ularini ifodalashi mumkin. Bundan tashqari ba'zan til muloqoti yetarli bo'lmasligi mumkin, ammo ishoralar yordamida bu muammoni hal qilish osonlashadi. Masalan, ko'rish yoki eshitishda muammolari bor insonlar uchun imo-ishoralar yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, tilni ishlatish jarayoni tilni qabul qilishdan boshlanib, fikrlarni shakllantirish va ovoz bilan ifodalash orqali amalga oshadi. Insonlar tilni avtomatik ravishda ishlatishga o'tishadi, bu esa xotira va o'rganish jarayonlariga bog'liq. Imo ishoralar va tana tili so'zlarni to'ldiradi va his-tuyg'ularni yanada kuchaytiradi. Har bir insonning tilni ishlatish usuli uning shaxsiy tajribasi, bilimlariga bog'liq. Bu jarayon tilni o'rganishda va muloqotda muhim ahamiyatga ega. Til, insonning tafakkuri va madaniyatini aks ettiruvchi muhim vosita bo'lib, uning ijtimoiy aloqalarini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun tilni ishlatish jarayonini chuqur o'rganish va tushunish insonlararo muloqotni kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashurova D.U., Galieva M.R. Text Linguistics. – Tashkent: Turon-Iqbol, 2016, 96 b.
2. Safarov Sh. “Kognitiv tilshunoslik”, Jizzax: Sangzor, 2006, 92 b.
3. Abbosova N. “Kognitiv tilshunoslik fanining rivojlanish tarixi, maqsadi va uning o‘rganilish obyekti”.
4. Sayidrahimova N.S. “kognitiv tilshunoslikda “tushuncha” va “konsept”, ularni tahlil qilish usullari”.
5. Boymurodova L.I. “Kognitiv tilshunoslik haqidagi nazariy bilimlar”.